



## IX-XII АСРЛАР ШАРК УЙГОНИШ ДАВРИ МУСИҚИЙ ЭСТЕТИКАСИННИГ ТАЛАБАЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ

<sup>1</sup>Shadmanova Nodira

BuxDU qoshidagi pedagogika instituti 1-yil magistranti

qurbanjonsh@gmail.com

tel.: +998973025447

BuxTI professori, f.f.dokt. Shadmanov Q.B. taqrizi ostida

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7776691>

### ARTICLE INFO

Received: 19<sup>th</sup> March 2023

Accepted: 27<sup>th</sup> March 2023

Online: 28<sup>th</sup> March 2023

### KEY WORDS

*Ma'rifatparvar, Uyg'onish davri, insonparvarlik, axloqiy, davomiylik, o'zgarish.*

### ABSTRACT

*Maqolada 9-12-asrlar Sharq Uyg'onish davrining atoqli mutafakkirlarning o'quvchilarning musiqiy estetikasini tarbiyalashdagi o'rni haqida so'z boradi. Bu jarayonda Markaziy Osiyoning o'sha davrdagi buyuk ma'rifatparvarlarining ushbu madaniy merosining o'zgarishini hisobga olish, ular tomonidan insoniyat tarixida sayqallangan umuminsoniy qadriyatlarni asrabavaylash, madaniy merosning uzviyligini ta'minlash zarur. axloqiy bilim.*

**Kirish.** O'zbek xalqining musiqa madaniyati O'rta Osiyo va Yaqin Sharq xalqlari folklori bilan uzviy bog'liqdir. Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek musiqasi og'zaki ijodkorlik san'ati sifatida uchta asosiy yo'naliishda – xalq og'zaki ijodi (folklor), xalq-professional ijod va kasbiy ijod (maqomlar va boshqa rivojlangan shakldagi asarlar) bo'yicha rivojlandi. Og'zaki ijodining professional musiqasi xalq ijodiyoti negizida, u bilan doimiy o'zaro ta'sirda rivojlanib, qadimiy shahar madaniyati sifatida hisoblandi [1, 561-bet]. Uning nazariy asoslari O'rta Osiyoning buyuk qomusiy mutafakkirlar Abu Nasr Forobi (IX-X asrlar), Abu Ali ibn Sino (X-XI asrlar) va Xorazmiy (XI asr) risolalarida yoritilgan.

Ta'kidlash kerakki, O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixida XIV-XV asrlar barakali samaralar berdi. Bu davrda O'rta Osiyoda yangi feodal munosabatlar gullab yashnadi, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo-sotiq yanada rivojlandi, madaniyatning turli sohalarida ham sezilarli darajada siljish ro'y berdi. O'rta Osiyo va Xurosonda o'rta asr fani, adabiyoti va san'ati yana jonlana boshladi [8].

Bu davrda musiqa madaniyati nazariyasiga oid asarlar yaratilib, Abdulqodir Noiy, Ali Shunqor, Qulmuhammad Shayhiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Qosim Rabboniy, Zaynulobiddin al-Husayniy, Darvesh Ahmad Qonuniy, Xo'ja Yusuf Andijoniy, Najmiddin Kavkabiy kabi bastakorlar, sozanda-yu xonandalar yetishub chiqqan. Tarixchi olim A.Muhammadjonov ta'kidlab o'tganidek, hatto Ulug'bek va Navoiy singari buyuk siymolar ham musiqa asarlari yaratganlar. Masalan, Ulug'bek "Bo'luiy", "Shodiyona", "Axloqiy", "Tabriziy", "Usuli Ravon", "Usuli otlig", Navoiy esa "Isfaxoniy" kuyini yaratganlar. Shuningdek bu davrda Xoja Abdulqodir Noiyning "Zubdat ul advor" ("Asosiy musiqiy davrlar") va "Maqosid ul- alxon" ("Kuylar maqsadlari"), Safiuddin Abdulmo'min Urmaviyning "Risolat ush-sharafiyya" ("Sharafga loyi q risola") va "Kitob ul-advor" ("Musiqiy davrlar haqida kitob") asarlari,



Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy" ("Musiqiy ilm risolasi"), Najmiddin Kavkabiyning "Risolai musiqiy" va "Risolai dar bayoni Duvozdahmaqom" ("O'n ikki maqom bayoniga bag'ishlangan risola"), Zaynulobiddin Mahmud al-Husayniyning "Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy" ("Musiqqa Ilmi amallari va qonunlari"), Darvesh Ali Changiyning "Tuhfat us-surur" ("Shodlik tuhfasi") kabi musiqa ilmi haqidagiasarlari vujudga keldi. Abdurahmon Jomiy o'zining "Risolai musiqiy" asarini Alisher Navoiyning da'vati bilan yozadi. Asarning kirish qismida musiqanifg psixologik ahamiyati, tinglovchilarda qayg'u va quvonch, tushkunlik, umidvorlik va ko'tarinkilik kabi ruhiy holatlarni keltirib chiqarishi masalalariga to'xtalinsa, asosiy qismida nag'malar, ularning boshqa ovozlardan farqi, nag'maning sozdagi xususiyatlari, turlari, inson ruhiyatiga ta'sir etish kuchi va boshqalarga to'xtalib o'tilgan. Xotima qismida esa ohanglarning shijoat va jasurlik; xursandchilik va quvonch; qayg'u va mung; g'am va ma'yuslik uyg'otish kuchi ta'kidlab o'tiladi. Zaynulobiddin al-Husayniy o'zining "Musiqaning ilmiy va amaliy qonunlari" asarida nag'ma-tovushning xususiyatlari, parda, cholg'u, vokal kuylari masalasini tahlil qildi, shuningdek, maqomlar, ularning tovush qatorlarini ta'riflab berdi [9].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Musiqiy ensiklopedik lug'atda musiqa haqidagi dastlabki normativ ma'lumotlar berilgan[1]. Ishoq Rajabovning Maqomlar nomli ilmiy monografiyasida Sharq mumtoz maqomlari tarixi, ularning bizgacha yetib kelgan Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga doir ilmiy nazariy muammolar va ayrim ijrochilik masalalari yoritilgan[8]. O'zbekiston Madaniyati o'quv qo'llanmasida o'zbek madaniyatining nazariy asoslari, tarixi va Mustaqillik davridagi yutuqlari o'z ifodasini topgan. Unda madaniyat tushunchasi va uning mohiyati, turlari, funksiyalari, ma'naviy meros, sivilizatsiya masalalari, tariximizning turli davrlarida yaratilgan madaniy boyliklar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, tajribalari yangicha yondashuvlar asosida yoritilgan[9].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy-tipologik, kotseptual-semantik, tahlil, lingvo-kulturologik va germenevtik talqin usullaridan foydalanildi. Jumladan, xorijiy [2;3;4;6] va O'zbekiston musiqashunos-olimlarning asarlaridan [5;8;9] hamda musiqiy ensiklopedik lug'atlardan [1;7] foydalanildi.

**Tahlil va natijalari.** XIV asrlarda O'rta Osiyoda markazlashgan Temuriylar davlati barpo etildi. Bu davrda adabiyot va san'atning ravnaqi uchun sharoitlar yaratilgan edi. Amir Temur (1336-1405) hukmdorlik qilgan zamon musiqasi to'g'risida ham ba'zi ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Sohibqiron Temur saroyida ko'p olimlar, shoirlar, musiqachilarxizmat qilgan edilar. Tarixchi olimlarning Temurlarning yurishlarini aks ettirgan kitoblarida yo'l-yo'lakay o'sha zamonning musiqa hayoti bilan bog'liq bo'lgan qimmatli ma'lumotlar keltiriladi[8].

Bu o'rinda ozarbayjon xalqining ulug' musiqachisi Xo'ja Abdulqodir Marog'iy haqida aytib o'tishgina kifoyadir. Xo'ja Abdulqodir haqida turli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Professor E. Brounning yozishicha, u Marog' shahridan chiqqan bo'lib, Bag'dod hukmdori tomonidan Samarcandga Amir Temur saroyiga tortiq qilib yuborilgan. Xo'ja Abdulqodir dastlab Temur saroyida, uning vafotidan so'ng Shohruh qo'lida sozanda (naychi) bo'lib ishlagan. Professor A.A. Semyonovning aytishicha, Amir Temur Iroqni bosib olganidan keyin,



boshqa mutaxassislar qatori Xo'ja Abdulqodirni ham Bag'doddan Samarqandga ko'chirib kelgan edi[8].

Xo'ja Abdulqodirning Samarqandda uzoq vaqt yashaganligini o'zi uning faoliyati O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatuvchi dalildir. U o'zining nay chalishdagi yuksak mahorati va musiqaviy-nazariy asarlari bilan bu halqlar musiqa madaniyati taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan ulkan san'atkor edi. Xo'ja Abdulqodir ikkita katta risola yozgan. Ular- "Maqasidul alhan" ("Kuylarning o'rni") va "Jami'ul-alhan" ("Kuylar to'plami"), deb nomlanib, musiqaning nazariy ham amaliy masalalaridan babs etgan. XV asr musiqa olimi Zaynulobidin Husayniy o'zining musiqa risolasida Xo'ja Abdulqodirning risolalari haqida gapirib, uning ba'zi nazariy mulohazalarini keltiradi. Ba narsa olimning so'nggi davrlarda ham mashhur bo'lidan darak beradi[8].

XVII asr olimi Darvish Ali ham o'z risolasida Xo'ja Abdulqodir haqida ma'lumotlar keltiradi, uni olim va zo'r bastakor sifatida ta'riflaydi. Ma'lum bo'lishicha, Xo'ja Abdulqodirning nazariy risolalarida ham maqomlar va ritmlar masalasi markaziy o'rnlarni egallaydi. Qisqasi uning risolalarida O'rta Osiyo xalqlarining musiqiy-nazariy fikrlari va musiqa amaliyoti ham o'z ifodasini topgan edi[8].

XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo madaniyati, o'rta asr adabiyoti va nusiqasining eng yuksalgan davri ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy (1441-1501) va tojik klassik shoiri va atoqli olimi Abdurahmn Jomiy (1414-1492) yashagan davr edi. Bu vaqtida temuriylarning ikkinchi yirik madaniyat markazi Hirotda fan, adabiyot va san'at rivojlandi. Sulton Husayn Mirzo (1458-1506) hukmronligi vaqtida shoir va musiqachilarining katta qismi saroyga, xususan, ulug' Navoiyning atrofiga to'plangan edilar [8].

Hirotda she'riyat va musiqa ayniqsa gullab yashnadi. Bu davrda yaratilgan ko'psonli she'riyat va musiqa haqidagi asarlar, nazariy risolalar, adabiyot va musiqa madaniyatining yuksak bo'lidan tasdiqlaydi[8].

Navoiy va Jomiy zamonasidagi musiqa madaniyati tarixini o'rganish borasida, musiqa bilan bilvosita bog'liq bo'lidan tarixiy, adabiy xarakterdagi asarlar ham asosiy manbalar sifatida juda katta ahamiyatga ega. Bu asarlarda sozanda, xonanda va bastakorlar nomi, o'sha vaqtarda iste'molda bo'lidan sozlar, xon saroylaridagi bazmlar, ommaviy sayil va bayramlarda ijro etilgan ashula va raqlar to'g'risida gapiriladi. Sulton Husayn davrida bayramlarda jamiyatning boshqa tabaqalari qatori hunarmandlar ham qatnashib, ko'chalarda va jamoa to'planadigan yerlarda ashula hamda o'yinlar uyuştirardilar [8].

**Xulosa va tavsiyalar.** XV asr adabiyoti va nusiqasining yodgorliklari qatorida she'r devoni va bayozlarini ham ko'rsatib o'tish lozim. Navoiy va Jomiy, ularning zamondoshlari bunday she'r to'plamlarini ko'plab tuzgan edilar. Bu she'r to'plamlaridan musiqachi-bastakorlar maqomlarning ashula yo'llariga she'rlar tanlab olishardi. Shuning uchun ham bu to'plamlar musiqa madaniyati tarixinini o'rganishda muhimki, ular musiqachi va bastakorlar uchun zarur qo'llanma bo'lib xizmat etgan, binobarin hozirda XV asrlarda ijro etilgan ashulalarning she'r matni mazmuni qanday bo'lidan aniqlashga imkon beradi[8].

Navoiy va Jomiy zamonda juda ko'p musiqa nazariyachilari, mohir sozanda va xonandalar hamda bastakorlar, maqomdonlar yetishib chiqdi [8].



## References:

1. Музикальный энциклопедический словарь. – М., 1990.
2. Вызго Т.С. К вопросу об изучении макомов // История и современность. Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. – М., 1972.
3. Музыка народов Азии и Африки. Вып.4. - М., 1984.
4. Плахов Ю. К вопросу о ритмической организации инструментальных частей шашмакома // Вопросы истории и теории узбекской сов.музыки. – Т., 1976.
5. Кароматов Ф., Эльснер Ю. Макам и маком// Музыка народов Азии и Африки. Вып.4. - М., 1984.
6. История и современность. Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. – М., 1972.
7. История узбекской музыки. М., 1979.
8. Ishoq Rajabov. Maqomlar. -Toshkent 2006.
9. Usmon Qoraboyev, G'ayrat Soatov. O'zbekiston Madaniyati. //Tafakkur bo'stoni. – Toshkent,2011.